

## OLIJ TA'LIMDA AMALIYOT VA NAZARIYA INTEGRATSIYASINI KUCHAYTIRISH ORQALI KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

**Ibragimova Gulsanam Nematovna**

*Pedagogika fanlari doktori, professor Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy  
pedagogika universiteti*

**Annotatsiya:** *Oliy ta'lim tizimida nazariya va amaliyot integratsiyasini kuchaytirish orqali talabalar kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish masalasi kompleks tarzda tahlil qilinadi. Global ta'lim makonida yuz berayotgan modernizatsiya jarayonlari, mehnat bozorining keskin raqobatga asoslangan talablari, raqamli transformatsiya va bilim iqtisodiyoti sharoitida oliy ta'lim bitiruvchisidan faqat nazariy bilimlarga ega bo'lish emas, balki ularni real kasbiy vaziyatlarda samarali qo'llay olish, mustaqil qaror qabul qilish, ijodiy fikrlash va jamoada ishlash kabi kasbiy va shaxsiy kompetensiyalarga ham ega bo'lish talab etilmoqda. Shu nuqtai nazardan, maqolada nazariya va amaliyot o'rtasidagi uzviy aloqadorlikni ta'minlash oliy ta'limning strategik vazifasi sifatida talqin etiladi.*

**Kalit so'zlar:** *oliy ta'lim, nazariya va amaliyot integratsiyasi, kasbiy kompetensiyalar, kompetensiyaviy yondashuv, dual ta'lim, raqamli ta'lim texnologiyalari, amaliyot dasturi, mehnat bozori, innovatsion ta'lim, amaliy o'qitish.*

**Аннотация:** *В статье всесторонне анализируется проблема усиления интеграции теории и практики в системе высшего образования как ключевого фактора развития профессиональных компетенций будущих специалистов. В условиях глобальной модернизации образования, усиления конкуренции на рынке труда, цифровой трансформации и формирования экономики знаний от выпускников вузов требуется не только владение фундаментальными теоретическими знаниями, но и способность эффективно применять их в реальных профессиональных ситуациях, принимать обоснованные решения, проявлять творческое мышление, коммуникативность и умение работать в команде. В данной работе интеграция теории и практики рассматривается как стратегическая задача высшего образования.*

**Ключевые слова:** *высшее образование, интеграция теории и практики, профессиональные компетенции, компетентностный подход, дуальное обучение, цифровые образовательные технологии, производственная практика, рынок труда, инновационное обучение, практикоориентированное обучение.*

**Annotation:** *The article provides a comprehensive analysis of strengthening the integration of theory and practice in higher education as a key condition for the development of students' professional competences. In the context of global educational modernization, increasing competition in the labour market, rapid digital transformation and the emergence of the knowledge economy, higher education graduates are required not only to possess solid theoretical knowledge, but also to apply*

*it effectively in real professional situations, to make independent and evidence-based decisions, to think creatively and to demonstrate well-developed communication and teamwork skills. From this perspective, the integration of theory and practice is interpreted in the article as a strategic priority of higher education.*

**Keywords:** *higher education, integration of theory and practice, professional competences, competence-based approach, dual education, digital learning technologies, internship, labour market, innovative teaching, practice-oriented learning.*

Zamonaviy oliy ta'lim tizimida talabalar kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish jarayoni fundamental nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirishga asoslanadi.

Qayta qurilayotgan iqtisodiy munosabatlar, mehnat bozorining keskin raqobatga asoslangan mexanizmlari, global integratsiya va raqamli transformatsiya zamonaviy mutaxassisdan nafaqat puxta nazariy tayyorgarlikni, balki real kasbiy vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish, amaliy ko'nikma va malakalarni yuqori darajada egallagan bo'lishni talab qiladi. Shu bois oliy ta'lim muassasalarida nazariya va amaliyot integratsiyasini kuchaytirish ta'lim samaradorligining asosiy omillaridan biri sifatida qaralmoqda.

Bu jarayon ta'limning kompetensiyaviy yondashuvga asoslanishi, ta'lim dasturlarining ishlab chiqarish ehtiyojlariga mos ravishda qayta yo'naltirilishi, o'quv jarayoniga zamonaviy pedagogik va innovatsion texnologiyalarning joriy etilishi bilan bevosita bog'liqdir.[1] Nazariya va amaliyot integratsiyasining zarurligi oliy ta'limning dunyo miqyosidagi rivojlanish tendensiyalarida ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Xalqaro ekspertlar tomonidan qayd etilishicha, ko'plab davlatlarda amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim modeli barqaror iqtisodiy rivojlanishning asosiy sharti sifatida qaralmoqda.

Bu jarayon ayniqsa dual ta'lim modeli, kompetensiyalar asosidagi o'quv dasturlari, modul asosida o'qitish, amaliy loyihalar va ishlab chiqarish bilan uzviy hamkorlik ko'rinishlarida namoyon bo'lmoqda. Nazariy bilimning amaliyot bilan mustahkam bog'lanishi talabanning kasbiy fikrlashi, kasbiy refleksiya, real vaziyatlarni tahlil qilish, ishlab chiqarish muammolarini hal etish qobiliyatini sezilarli darajada oshiradi. Nazariy bilimlar o'z-o'zidan kasbiy kompetensiya hosil qilishga yetarli emasligi, u amaliyot orqali mustahkamlanishi va real jarayonlar bilan to'qnash kelganda talabanning bilimdan faol foydalanish qobiliyati shakllanishi ilmiy tadqiqotlarda ham tasdiqlangan. [2] Oliy ta'lim muassasalarida nazariya va amaliyot o'rtasidagi uzviy aloqaning yetarli darajada tashkil etilmagani ko'plab tizimli muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, talabalarda faqat nazariy ma'lumotlarni takrorlay olish, amaliy masalalarni hal qilishda qiynalish, innovatsion faoliyatga moslasha olmaslik, ishlab chiqarish jarayonidagi texnologik yangiliklarni o'zlashtirishda sustkashlik kabi holatlar kuzatiladi. Bu esa ta'lim tizimi bilan ishlab chiqarish o'rtasidagi uzoq yillardan beri mavjud bo'lib kelgan uzilishlar natijasidir. Ayni paytda O'zbekiston oliy ta'lim tizimida ham ushbu masalani kompleks hal qilish

bo'yicha qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, o'quv dasturlarni xalqaro standartlarga moslashtirish, kredit-modul tizimiga bosqichma-bosqich o'tish, kasbiy amaliyotni kengaytirish, dual ta'lim elementlarini joriy etish kabi jarayonlar sohada muhim o'zgarishlarni boshlab berdi. [3] Nazariya va amaliyot integratsiyasini rivojlantirishning eng muhim jihatlaridan biri bu ta'lim jarayonining mehnat bozori ehtiyojlariga mosligi hisoblanadi. Zamonaviy mehnat bozori inson kapitaliga bo'lgan talabni yangicha konsepsiya asosida shakllantirmoqda. Mutaxassisning qiymati uning nazariy tayyorgarligi emas, balki amaliy faoliyatda qo'llay oladigan bilimlari va kompetensiyalarining darajasi bilan belgilanadi. Shu sababli oliy ta'lim jarayoniga kasbiy standartlarni integratsiya qilish, real ishlab chiqarish muhitida o'quv amaliyotlarini tashkil etish, ishlab chiqarish korxonalarini o'quv laboratoriyalari sifatida faol foydalanish, mehnat bozoridagi kompaniyalar bilan strategik hamkorlikni kuchaytirish ta'lim samaradorligini oshiradi. Talaba o'qish jarayonida o'zining kelajak kasbiy yo'nalishi bo'yicha aniq tasavvurga ega bo'lib boradi, bozor talab qilayotgan kompetensiyalarni egallaydi va bitirgan zahoti mehnat bozorida raqobatbardosh bo'la oladi.[] Nazariya va amaliyot integratsiyasini kuchaytirishda o'quv jarayonining mazmuni ham tubdan yangilanishni talab qiladi. Ta'lim dasturlari faqat informatsion bilimlarni berishga emas, balki amaliy vazifalarni bajarishga yo'naltirilgan bo'lishi zarur. O'quv rejalarida laboratoriya ishlarini ko'paytirish, amaliy seminarlar ulushini oshirish, talabalarning mustaqil ilmiy izlanishlarini kuchaytirish, amaliy loyihalar asosida o'qitish, keys-stadi, problemali vaziyatlarni tahlil qilish kabi yondashuvlar aynan nazariya va amaliyot o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'minlaydi. Kompetensiyaviy yondashuvda o'quv dasturi bilim, ko'nikma, malaka va qadriyatlarning uyg'un tizimi sifatida shakllantiriladi. Ta'lim mazmuni kasbiy malaka talablaridan kelib chiqib qayta tuziladi, bu esa ta'lim jarayonining sifatini oshiradi.[4] Integratsiya jarayonining yana bir muhim tarkibiy qismi bu o'qituvchining amaliy tayyorgarligi, uning kasbiy kompetensiyalarining doimiy ravishda yangilanib borishidir. O'qituvchi nafaqat nazariy bilimni puxta bilishi, balki amaliy faoliyatni chuqur anglagan, ishlab chiqarish texnologiyalari bilan yaqindan tanish, zamonaviy texnik vositalardan bemalol foydalana oladigan malakali mutaxassis bo'lishi talab etiladi. Aks holda ta'lim jarayonida amaliy yo'naltirilgan yondashuvni to'laqonli amalga oshirish imkonsiz bo'lib qoladi. Shu bois oliy ta'lim muassasalarida professor-o'qituvchilarni qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimi samarali ishlashi, ularning ishlab chiqarish jarayoniga muntazam jalb etilishi, amaliy seminarlar, treninglar, xalqaro tajriba almashish dasturlarida faol ishtirok etishi ta'lim jarayonini amaliyot bilan uyg'unlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.[5] Talabaning amaliy kompetensiyalarini shakllantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalar va raqamli ta'lim vositalarining o'rni beqiyosdir. Raqamlashtirish sharoitida virtual laboratoriyalar, simulyatorlar, sun'iy intellekt tizimlari, elektron ta'lim platformalari, masofaviy o'qitish texnologiyalari orqali nazariy va amaliy bilimlar integratsiyasi yanada kuchaymoqda. Masalan, muhandislik ta'limida

zamonaviy simulyatsiya komplekslaridan, iqtisodiy ta'limda amaliy moliyaviy modellar va tahliliy dasturlardan, pedagogik ta'limda esa virtual sinf, kuzatuv platformalari, pedagogik diagnostika tizimlaridan foydalanish talabalarning amaliy kompetensiyalarini sezilarli darajada rivojlantiradi. Virtual amaliyotlar talabaga real muhitda duch keladigan vazifalarni xavfsiz va samarali tarzda bajarish imkonini yaratadi. Shu tariqa raqamli texnologiyalar ta'lim jarayoniga shunchaki qo'shimcha vosita emas, balki nazariya va amaliyotni integratsiyalashning muhim mexanizmi sifatida faol kirib bormoqda.[6] Ishlab chiqarish korxonalarini bilan hamkorlikni kuchaytirish nazariya va amaliyotni uyg'unlashtirishning eng samarali yo'llaridan biridir. Xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, ta'lim muassasasi va ishlab chiqarish o'rtasidagi mustahkam integratsiya nafaqat talabalar uchun amaliy bilim manbai, balki korxonalar uchun ham malakali kadrlar tayyorlashning xizmat qiladi. Bunda hamkorlikning turli shakllari mavjud: talabalarning ishlab chiqarish amaliyoti, korxonalar mutaxassislarining o'quv jarayoniga jalb etilishi, qo'shma laboratoriyalar tashkil etish, dual ta'lim dasturlari, qo'shma ilmiy loyihalar, o'quv-uslubiy materiallarni birgalikda ishlab chiqish, korxonalarda ta'lim markazlarini tashkil etish kabi mexanizmlar keng qo'llanilishi mumkin. Bu jarayon talabaning real ishlab chiqarish muhitida o'qishini ta'minlaydi, o'qituvchi esa korxonalar texnologiyalaridan xabardor bo'lib boradi.[7] Nazariya va amaliyot integratsiyasini kuchaytirishda talabalar amaliyotini samarali tashkil etish alohida o'rin tutadi. Amaliyot jarayoni faqat davriy tashrif yoki rasmiy jarayon bo'lib qolmasligi, balki talabaning kasbiy o'sishi uchun mustahkam platformaga aylanishi zarur. Amaliyot dasturlari aniq maqsad va vazifalarga ega bo'lishi, har bir amaliyot davri oxirida kompetensiyalarni baholash tizimi ishlab chiqilishi, talabaning amaliy faoliyatiga mentorlik tizimi joriy qilinishi, amaliyot jarayonida tanqidiy fikrlash, boshqaruv, muloqot, jamoada ishlash, muammoni hal etish kabi yumshoq ko'nikmalar ham shakllanishi lozim. Bu esa bitiruvchilarning mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshiradi.[5] Integratsiya jarayonining psixologik-pedagogik asoslari ham muhimdir. Ta'lim jarayonida talabada kasbiy o'zini anglash, kasbiy motivatsiya, o'z ustida ishlash qobiliyati, kasbiy identifikatsiya kabi psixologik omillar shakllanadi. Nazariya amaliyot bilan bog'lanmagan ta'lim jarayonida talaba o'zining kelajakdagi kasbini his qila olmaydi, kasbiy yo'nalishini aniq belgilay olmaydi va bu uning motivatsiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Aksincha, real amaliyot jarayoniga jalb etilgan talaba o'zining bilimlari amaliyotda qanday qo'llanishini ko'radi, kasbiy jarayonlarni bevosita kuzatadi, o'zining kasbiy bilimini baholash imkonini topadi. Bu jarayon kasbiy kompetensiyalarning chuqur va barqaror shakllanishiga xizmat qiladi.[4] Maqsadli kompetensiyalarni shakllantirishda baholash tizimini takomillashtirish ham zarur. An'anaviy baholash tizimi talabaning nazariy bilimini aniqlashga yo'naltirilgan bo'lib, uning amaliy kompetensiyalarini to'liq aniqlay olmaydi.

Shu sababli kompetensiyalarni baholashning zamonaviy usullari, jumladan portfoliolar, amaliy ko'nikmalarni tekshirish, loyihaviy ishlar, amaliy vazifalarni

bajarish, simulyatsion testlar, kasbiy holatlarni modellashtirish kabi baholash mexanizmlaridan foydalanish talab etiladi. Bunday baholash tizimi talabning faqat bilim darajasini emas, balki real vaziyatda o'zini tutishi, kasbiy qaror qabul qila olishi, amaliy faoliyatga tayyorligini aniqlash imkonini beradi.[2] Shuningdek, nazariya va amaliyotni integratsiyalash jarayonida innovatsion loyihalash kompetensiyasi alohida o'rin tutadi. Talabalar amaliy loyihalarda ishtirok etish orqali ilmiy-tadqiqot faoliyatiga jalb etiladi, yangilik yaratish ko'nikmasi shakllanadi, tadqiqot metodologiyasining asoslari o'zlashtiriladi. Bu jarayon nafaqat kasbiy amaliyotni mustahkamlash, balki talabalarda ijodiy fikrlash, analitik yondashuv, muammoni mustaqil hal qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Ilmiy tadqiqotlarda ishtirok etgan talabalarining o'quv jarayoniga motivatsiyasi oshishi, kasbiy mahoratni egallash jarayoni tezlashishi kuzatilishi bejiz emas. Oliy ta'limda nazariya va amaliyot integratsiyasini kuchaytirishga qaratilgan kompleks yondashuv nafaqat ta'lim jarayonining sifatini oshiradi, balki jamiyatning innovatsion salohiyatini rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

Yuqori malakali, ijodiy fikrlaydigan, zamonaviy texnologiyalarni puxta egallagan, amaliy vazifalarni mustaqil bajara oladigan mutaxassislar mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy barqaror rivojlanishining asosiy kuchidir. Shuning uchun nazariya va amaliyot integratsiyasi oliy ta'limning ustuvor vazifasi bo'lishi zarur.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Barnett, R. *Realizing the University in an Age of Supercomplexity*. McGraw-Hill/Open University Press, 2000.
2. Laurillard, D. *Teaching as a Design Science: Building Pedagogical Patterns for Learning and Technology*. Routledge, 2012.
3. Makhmudov, K., Jo'rayev, A. *Oliy ta'limda kompetensiyaviy yondashuvning nazariy asoslari*. Toshkent: O'qituvchi nashriyoti, 2020.
4. Xolmurodov, H. *Oliy ta'limda amaliyotning samaradorligini oshirish metodikasi*. Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
5. Abduraxmonova, O. Raqamli ta'lim texnologiyalarining oliy ta'limdagi o'rni. — *Ilmiy axborotlar jurnali*, 2022, №3.
6. World Bank. *Enhancing Teaching and Learning in Higher Education*. Washington, DC: World Bank Publications, 2021.
7. Zaslavsky, A. *Practice-Oriented Learning in Higher Education: Approaches and Models*. *Journal of Higher Education Studies*, 2020, Vol. 8(4).